



MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA”-SHUKRONALIK DOSTONI

Sevinch Anvarovna Hasanova

Faculty of Economics

Department of Transport Economics

ORCID: 0009-0005-6621-3409

Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

e-mail: hasanovasevinch7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning “Toshkentnoma” dostoni haqida soʻz borgan. Ushbu dostonida qadimiy va ayni chogʻda zamonaviy Toshkent shahriga bagʻishlangan. Maqsud SHayxzodaning ijodi zamonaviylik va tarixiylik tamoyillariga javob beruvchi umrboqiy ijod ekanligi haqida fikr aytilgan.

Kalit soʻzlar: “Toshkentnoma” dostoni.

Kirish

Maqsud Shayxzoda ijodiy balogʻatidan dalolat beruvchi asarlardan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik oʻz vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli boʻlib, unda shoir shaxsiyatining oʻziga xos qirralari ancha yorqin namoyon boʻlgan. Dostondagi oʻziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas. Shu bilan birga Maqsud Shayxzoda krfiyaning yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, oʻzbek sheʼriyatiga yangi vazn va shakl koʻrinishlarini olib kirgan. SHoir ijodiga xos bu tamoyil uning, ayniqsa, “Toshkentnoma” (1958) lirik dostonida yorqin ifodasini topgan 1958-yili adibning koʻhna va ayni chogʻda navqiron Toshkent shahriga bagʻishlangan, uning tarixi, oʻtmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi “Toshkentnoma” lirik dostoni yaratildi.

Muhokama Va Natijalar

Shoir ijodiy biografiyasida “Toshkentnoma” dostoni alohida oʻrin tutadi. Bu asarni unga eng ogʻir kunlarida boshpana va panoh boʻlgan shahri azimga boʻlgan muhabbati oʻlaroq yaratilgan desak yanglishmagan boʻlamiz. Maqsud Shayxzodadan bizga ulkan meros qoldi. Uning sheʼriyati koʻngillarni xushnud etishda davom etmoqda, dramalari sahnalarda qoʻyilmoqda. Maqsud Shayxzoda oʻzbek va ozarbayjon xalqlarining mustahkam doʻstligi ramzi, ikki xalq farzandi sifatida mangulikka daxldordir. Maqsud Shayxzoda ijodiy balogʻatidan dalolat beruvchi asarlardan biri “Toshkentnoma” dostonidir.



Adabiy jamoatchilik o'z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, "Toshkentnoma" Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo'lib, unda shoir shaxsiyatining o'ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo'lgan.

SHoir "Toshkentnoma" lirik dostonida bunday yozgan edi:

Umrin bino bo'ldi Ozarboyjonda,

Kechdi bolaligim u gul makonda.

Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi

O'lkamga to'ldirdi she'r havosin...

Lekin shoirlikning nozik tolei

Kuldi Sirdaryoning havzalarida.

O'zbek quyoshining chin otaligi

Aks etdi mastoba kosalarida.

O'zbek vodiysida otimni surdim,

Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim.

Yo'q, men taqdirimdan emasman xafa,

SHoirlik unvoni baxtimdan tuhfa!

Shayxzoda, o'zi e'tirof etganidek, she'riyatda zamonaviy voqelikni, dramaturgiyada esa tarixiy o'tmishni tasvirlashga hamda xalq va mamlakatning dardli masalalarini o'tmishga bag'ishlangan asarlarida ifodalashga intildi. U o'zining dostoni orqali xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do'stlik, baxt va alam, yurtning go'zal manzaralari va insonning ma'naviy jamoli mening qalamimga oshno va dilimga mazmun bo'lib keldi.

Shaharlar boqiydir, umr — o'tkinchi,

Daryolar sobitdir, suvlar — ko'chkinchi.

Har kim o'z shahrida qo'ygan esdalik:

YO bino qurishda katta ustalik,

YO shirin latifa yoki ixtiro,

YO daraxt, yo farzand, ko'prik, yo misra,

YO qo'shiq, yo dori, maktab, sog'chilik,

Xulosa dunyoda biron yaxshilik...

Akademik M.B.Xrapchenkoning aniqlashicha, XIX asrning birinchi yarmidan boshlab, inson ichki dunyosini badiiy tadqiq etish muammosini tekshirish kuchayadi va psixologizm (ruhiyat) prinsiplarini ishlab chiqish boshlanadi.

Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab

Qilarkan ta'rifi, sen bir oz to'xtab,

"Shunchalar bormikan?" deb gumon qilding,

"Ko'rganda aytamiz!" deb imo qilding.

Va aytding — darvoqe ko'rgandan keyin:



“Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!”

SHoir bu misralarda avvalo hayot hamda realizm va uning chuqurlashuvi bilan ham bog‘liqlikni maqtovinini keltirgan. U ning ta‘rifi hamkorining Toshkentni ko‘rishga bo‘lgan ishtiyoqini, undagi his tuyg‘ularni kuchayishiga, intellektual o‘rishiga, ijodiy kuchlarning ravnaq topishiga, o‘z huquqlarini faol himoya qilishi, o‘z qadru qimmatini bilishi, jamiyatda markaziy mavqega ko‘tarilishi va fikrlarining teranlashuviga olib keldi. Psixologizm (ruhiyatchilik yoki ruhiyatni aks ettirish) orqali shoir asar qahramonlarining ichki dunyosi tahlil qilishga muvaffaq bo‘lgan.

Maqsud Shayxzodaning psixoanalizi negizida insoniylik, axloq, falsafa, inson ongi takomili turadi. SHoir “Toshkentnoma” dostonini tahlil qilishda soxtalik, loqaydlik, riyokorlik, mahalliychilik, og‘aynigarchilik, egoizm, amalparastlik, milliy ong qoloqligi, siyosatdan qochishga harakat qilgan va psixologizmning esdalik, o‘y, xayol, qayta baholash, ichki monolog, portret, qayta ifoda etish va boshqa usullaridan mohirona foydalana olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
2. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) Toshkent, „Nihol“, 2008.
3. Boboyev T., „Adabiyotshunoslik asoslari“. Toshkent. 2002.
4. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y.